TARBIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Abduvaliyeva M.A., GDPI stajor- o‘qituvchisi
e-mail:mashhuraabduvaliyeva123@mail.com
Abdushukurova M.,GDPI talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar, “Tarbiya” fanini o“qitishning samarali usullari, tarbiya fani darsini to‘g‘ri tashkil qilish, o‘quvchilarga tarbiya fani orqali vatanparvarlik hissini singdirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, aksiologik yondashuv, xulq-atvor yondashuvi, germenevtik yondashuv, texnalogik yondashuv, zamonaviy.

Abstract: Three articles discuss the impact of modern diseases on the teaching process of the subject “Educetion”, effective methods of teaching the subject “Educetion”, the correct organization of the educational lesson, and the development of a sense of patriotism in students through education.

Key words: education, axiological light, behavioral light, hermeneutic light, modern light, modern.

Bugungi kunda Yangi O`zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va mustaqilliklarini ta`minlashga jamiyatni ma`naviy yangilanishini yo`lga qo`yib, bugungi yoshlarni ma`naviyatli, madaniyatli qilib tarbiyalash bugungi kun masalalaridan biridir. Shuning uchun “Tarbiya” fani asoslari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020-yilda “Tarbiya” yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada O`zbekiston Respublikasi V azirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli “Umumiy o`rta ta`lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori qabul qilindi va mazkur qaror bilan Umumiy o`rta ta`lim muassasalari o`quvchilari uchun “Tarbiya fani kontsepsiyasi” tasdiqlandi.

Hozir biz texnalogiyalar rivojlangan asrda yashayabmiz. Yurtimizda juda ko`plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Biz bir qancha sohalarda oldinga qarab intilmoqdamiz. Shunga qaramasdan ba`zi o`smirlar va yoshlarning xulq-atvoriga befarqligi namoyon bo`lmoqda. Bu masalalarning oldi olinmasa, choralari ko`rilmasa savodsizlik safi ortishi mumkin. Savodsizlik safi ortishi deganda, bu o`z-o`zidan bilimsizlikning keng tarqalishidir. Bugungi kunda shuning uchun ham barcha umumiy o`rta ta`lim muassasalariga birinchi sinfdan o`n biribchi sinfgacha “Tarbiya” fani o`qitilmoqda.

Tarbiya fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

1. Ta`lim-tarbiyaga oid me`yoriy hujjatlar
2. Tarbiya asoslari va manbalari
3. Tarbiya qonunlar, metodlari va texnalogiyalar
4. Tarbiyaning amaliy asoslari

Aynan mazkur asoslar o`quvchilarning negizini tashkil qiladi. Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilar bu asoslarning barchasini mukammal darajada o`zlashtirishlari zarur. Sababi boshlang`ich sinf o`quvchilarida tarbiyaning ilk negizlari shakllantiriladi. “Tarbiya” fanini o`qitishda boshlang`ich sinf o`qituvchilarining ma`sulyati katta hisoblanadi.

“Tarbiya” fanini zamonaviy yondashuvlar turiga quyidagilar kiradi.

1. Aksiologik yondashuv
2. Texnalogik yondashuv
3. Bixavioristik yondashuv
4. Snirgetik yondashuv
5. Germenetik yondashuv

Aksiologik yondashuv bu insonning jamiyatdagi hayotining o`zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi, tarbiya hayotga tayyorlashga, shaxsiy qadriyatga yo`nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarni o`zlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etish.

Texnologik yondashuv bu konseptual ta`limiy qadriyat. Ta`limni texnalogiyalashtirish- bu o`qitish jarayoniga texnalogik yondashish asosida ta`lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo`llari va samarali vositalarini tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarini ochib beruvchi pedagogik yo`nalishdir.

Ta`limga texnalogik yondashish bu ma`lumot va ta`lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo`li bilan o`quv tarbiya jarayonining umumiy xususiy

maqsadlarini tahlil qilish, o`qituvchi va talaba maqsadllarining uchrashgan nuqtalarida ta`limning didaktik maqsadlarini belgilash asosida ta`limni loyihalash va amalga oshirish yo`llari bilan mo`ljaldagi etolonga erishishdir.

Tarbiyaga sinergetik yondashuv bu murakkab tizimlarning o`zini o`zi tashkillashtirish bilan bog`liq nazariyasi asosida kelib chiqqan.

Dunyo hamjamiyatida prefigurativ madaniyatidan fenomenlar kelajakning noaniqligi, bugunning beqarorligi, axborot alg`ov-dalg`ovligi brogan sari ko`proq anglanilib bormoqda. Ushbu sharoitlarda tarbiya maqsadga yo`naltirilgan boshqaruvga bo`ysunish mumkin emas, chunki tarbiyaning o`zi noaniqlik soha. Tarbiyani tashxis qilish, uning natijalarini o `lchash murakkabligi tasodif emas: ular doimo haqiqiy tarbiya vaziyatidan vaqt bo`yicha kechikib yuradi va noaniqdir. Tarbiya jarayonida pedagog ta`sirida shaxsning motivatsion qadriyatli tizimlari o`zgarishga uchrayotganligini, tarbiyachining ma`naviy izlanishlari, o`zini o`zi o`zgartirishi, hayotiy tajribani egallashi natijalari qanday bo`layotganligini aniqlash oson emas. Tarbiyaga snergetik yondashuvning o`ziga xos xususiyati bu shaxsni o`zgartirishning bir qancha yo`llari, imkoniyatlarini tan olish va sakrashlar yuz beruvchi keskin beqaror tarbiyaviy vaziyatlardan kelib chiqishdir.

Xulq-atvor yondashuvi bu tarbiyalanuvchilarda kuzatilishi mumkin bo`lgan xatti-harakatlarga g`amxo`rlik qiluvchi va ular bilan shug`ullanadigan psixalogik xulq-atvor yondashuvi. Ushbu yondashuvda barcha xatti-harakatlar atrof-muhit bilan o`zaro ta`sir orqali vujudga keladi. Xulq-atvorning shakllanishida atrof-muhit ham katta ro`l o`ynaydi. Bolalarni to`g`ri shakllantirish uchun mos muhit yaratish kifoya. Yoshlarni maktab va o`qishga mehr qo`yadigan, ijobiy munosabatda bo`ladigan, nochorlikdan yiroq o`ziga ishonchi baland insonlar bo`lib voyaga yetishishida tasodifan emas ongli ravishda yordam berish kerak.

Germenektiv yondashuv inson hayotida bir-birini tushunishidir. Germenevtika nuqtai nazaridan, tarbiya bu subyektning kechinmalari sifatida namoyon bo`luvchi psixik tajribalarga, uning hayotiy olamiga murojaat etish hisoblanadi. Bu fenomen, ya`ni psixik kechinma faqatgina refleksiya (o`zini o`zi tahlil qilish) orqali o`zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, inson boshqalarning asl holatini faqat o`zi boshidan kechirganlari va tushunganlari orqaligina anglaydi. Bu tarbiyachiga ham, tarbiyalanuvchiga ham bir hil darajada taaluqlidir. Shu sababli bola kechinmalari tarbiyachi faoliyatining asosiy predmeti hisoblanadi. Bolani germenevtik qabul qilish tarbiyachining o`zining shaxsiy bolalik tajribalarini, o`z bolalik kechinmalarini refleksiya qilishi, bolalik xotiralarini “yashab o`tishi”siz amalga oshishi mumkin emas. Bunday pedagog bolani boshqarmaydi, majburlamaydi, balki u bilan xuddi katta o`rtog`idek hamkorlik qiladi.

Germenevtik ruhda tarbiyalashda bola atrofni va o`zini o`zi tushunishi muhim hisoblanadi. Germenevtik yondashuvda tarbiyachi bolalarning o`ziga xos hayotiy qadriyatlarini tan oladi.

“Tarbiya” fanining o`ziga xosligi quyidagilardan iborat: Amaliyotga yo`naltirilganligi O`quvchini mustaqil faoliyatga undashi Tadbirkorlik uvaffaqiyatlariga intilish motivlarini rivojlantirish Ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltirilganligi Vatanparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish Tanqidiy fikrlash Liderlik ko`nikmalarini shakllantirish

“Tarbiya” fani darsligini boshqa davlatlardagi fanlar bilan taqqoslaydigan bo`lsak , Buyuk Britaniyada “Tafakkur”, “Xulq ta`limi”, Yaponiyada “Axloq ta`limi” Singapurda “Fe`l-atvor va fuqarolik ta`limi”, Hindistonda “Qadriyatlar ta`limi”, B.A.A da “ Axloq ta`limi” kabi fanlarga to`g`ri keladi. Bundan ko`rinib turibdiki, hamma davlatning tarbiyasi haqida ma`lum doiradagi darsliklar mavjud.

Bizning mamlakatimizda tarbiya darsiga epigraf asosida “Tarbiya baxt va muvaffaqiyat sirlari” jumlasini olishgan. Bu jumlada juda katta ma`no bor.

- Ta`lim bering Rag`batlantiring O‘zgartiring

Bu so‘zlar orqali nima demoqchi? Ta`limni berish kerak. O`z vaqtida yutuqlarini rag`batlantirish kerak va xatolarini to`grilab o`zgartirish zarur.

Tarbiya fanini o`qitishda har bir sinf darsliklari uchun aniq maqsadlar tuzilgan. Misol uchun 1-sinfning darsligini tugatgan o`quvchi orzularini aniqlay oladi, ma`sulyatni anglaydi, odob me`yorlariga rioya qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, tarbiya bu uzluksiz davom etuvchi jarayon hisoblanadi. Tarbiyada tanaffus yo`q, tarbiyada ta`til yo`q, tarbiyada uzulish yo`q. Inson shakllana boshlashidan u o`zida tarbiyani shaklllantiradi. Tarbiya shunday jarayonki, unga hamma narsa, har qanday vaqtda ta`sir qilishi mumkin. “Tarbiya” fanini pedagoglar shunday o`tishi kerakki, o`quvchilarning ongida, xulqida og`ishishlarga yo`l qo`yilmasligi kerak. 1-sinfdan 11-sinfgacha “Tarbiya” fani darsligi tashkil qilindi. Bu bejizga emas. O`quvchilarning bugungi kun yoshlarining xulq-atvoridagi o`zgarishlarni oldini olish uchun, ularga yaxshi tarbiya berish maqsadida olsak xato bo`lmaydi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. “Ta`lim to`g`risidagi qonun” 2020-yil 23-sentyabr 637-son
2. Tarbiya vanini o`qitish metodikasi G.B.Saidnazarova 108-bet
3. SHavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”
4. Farobiy “Fozil odamlar shahri” –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. 1993. 184-185-betlar.